

ONA TILI TA`LIMINI IJODIY TASHKIL QILISHDA AMALIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilidan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlardan foydalanish usullari keng yoritilgan. O'quvchilarning yoshiga mos amaliy topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной статье широко освещаются методы использования творческих заданий, направленных на развитие знаний, умений и навыков учащихся по родному языку. Разработаны практические задания, подходящие для возраста учащихся.

Abstract: In this article, the methods of using creative tasks aimed at developing the knowledge, skills and abilities of students from the mother tongue are widely covered. Practical tasks suitable for the age of students have been developed.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, sinkveyn, ta'lim, she'r, mustaqil ta'lim

Ключевые слова: дидактическая игра, синквейн, обучение, стихотворение, самостоятельное обучение.

Key words: didactic game, sinkwein, education, poem, independent education

Mamlakatimizda fan va ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlay oladigan, har qanday hayotiy vaziyatga o'z nuqtai -nazari bilan yondashadigan shaxsni shakllantirish zaruriyati paydo bo'ldi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini ijodiy tashkil qilishni mustaqil ta'lim asosida o'qitish, ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsda va darsdan tashqari mustaqil ish qilish uchun vazifalar beriladi. Bu esa o'z navbatida ona tili o'qitish ta'limida o'quv tarbiya jarayonining muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda mustaqil ishlash avvalo, mustaqil ishlarga tayyorlash, o'qituvchi tomonidan materiallning muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borgan ma'qul: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, ijodiy ishlarni bajarish kabi.

1-amaliy topshiriq. Keltirilgan tayanch so'zlardan foydalanib, ijodiy matn tuzing.

Qish,qor,bolalar,yaxmalak.

2-amaliy topshiriq. Keltirilgan rasm asosida badiiy matn tuzing. Matnda badiiylikni ta'minlovchi bo'yoqdor so'zlardan foydalaning.



NAMUNA. Farzand – oila tayanchi. “Oila mustahkamligi farzand bilan”-deya bejiz aytilmagan. ...

3-amaliy topshiriq. “Sinkveyn” metodidan foydalanib matn yarating.

Metodning maqsadi: “Sinkveyn” so‘zi fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “besh misradan iborat she‘r” tarjimasini beradi.

“Sinkveyn” tuzish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi - odatda ot turkumidagi oid so‘z bilan;
- ikkinchi qatorda mavzu ikki so‘z bilan ta’svirlanadi - sifat turkumiga oid ikki so‘z bilan;
- uchinchi qatorda ushbu mavzu bo‘yicha xatti-harakatlar uch so‘z bilan ta’svirlanadi;
- to‘rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi to‘rtta so‘zdan iborat gap yoziladi;
- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so‘zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

Namuna:

Ona

Mehribon, g`amxo`r

Erkalaydi, sevadi, kuyinadi

Dunyodagi eng ulug` zot

Volida.

4-amaliy topshiriq

“Tez top” o`yini. O`qituvchi o`quvchilarga xalq maqollaridan namunalar aytadi. O`quvchilar esa bunday maqollar qatorini davom ettiradi. Ulardan sanoq sonlarni aniqlaydilar hamda shu maqollarning ma`nolari ustida ish olib boradilar. Sonlarni o`z ichiga olgan maqollarni belgilangan miqdorga yetkazib, ularning ma`nosini tushungan va izohlab bera olgan o`quvchilar o`qituvchi tomonidan rag`batlantiriladi.

Namuna: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, “Sanamay sakkiz dema”, “Bir yil tut ekkan kishi, yuz yil gavhar teradi”, “Bir kalla - kalla, ikki kalla tilla”...

5-amaliy topshiriq

O`quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida **“To`g`ri yozgan g`olib bo`lar, yaxshi ilmu tolib bo`lar” o`yin – topshirig`idan** foydalansa bo`ladi. Bu o`yinda o`qituvchi ma`lum bir sonlarni raqam bilan taxtaga yozadi va ularni imlo qoidasiga muvofiq yozishni talab etadi. Masalan, 1-2, 3-4, 5, 10 ta, 15 ta, 40, 55, 60 ta, 70-80 ta, 90, 100, v.h.

Raqamlar bilan ifodalangan sonlarni so`zlar orqali to`g`ri yozgan o`quvchilar o`yin sharti asosida g`oliblikni qo`lga kiritishlari mumkin.

Demak, boshlang`ich sinflarda ona tili ta`limini ijodiy tashkil qilish o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qosimova K va b. Ona tili o`qitish metodikasi.Toshkent.”Noshir”2009-y.

**1.Ҳомидий Ҳ. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Т.:
Ўқитувчи, 1967. 92 - бет.**

**2.Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi//Barkamol avlod - O'zbekiston
taraqqiyotining poydevori - Toshkent: Sharq, 1997. - 44 bet.**